

**SIRDARYO VILOYATIDAGI
KORXONAVA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**
*2020-yil 1-oktabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

16 009
123,7 %



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

14 991
123,0 %



Yangi tashkil etilgan korxonalar
(2020-yilda)

2 443
114,5 %

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

9 922



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

358



Oilaviy korxonona

122



Unitar korxonona

3 232



Xususiy korxonona

24



Aksiyadorlik jamiyati

262




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



Xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidari javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-oktabr holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat –aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi;


–aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar- sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-sentabr oylarida)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020-yil yanvar-sentabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi)



2020-yilning yanvar-sentyabr oylarida 2 443 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar– 2 055 ta, xususiy korxonalar– 134 ta, oilaviy korxonalar– 155 ta, muassasalar– 14 ta va boshqalar– 85 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 358 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 198 taga yoki 223,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 304 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 156 taga yoki 205,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 155 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86 taga yoki 224,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 9 922 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 787 taga yoki 39,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 9 366 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 611 taga yoki 38,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 055 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 336 taga yoki 19,5 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni (2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra 186 tani tashkil etib, ulardan 182 tasi yoki 97,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 38 taga yoki 125,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-sentabr oylarida Viloyatimizda 21 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016-yil	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	62	82	103	146	182
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4	4	10	8	15
Sanoat	45	60	68	101	114
Qurilish	1	3	5	7	10
Savdo	6	9	11	20	26
Tashish va saqlash	2	3	4	5	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	1	-	2
Axborot va aloqa	-	-	-	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-	-
Boshqa turlar	4	3	4	4	9


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 373	4 265	5 006	6 755	9 366
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	510	682	818	1 042	1 559
Sanoat	520	686	777	1 134	1 450
Qurilish	333	413	588	910	1 094
Savdo	1 143	1 346	1 529	2 048	3 280
Tashish va saqlash	345	442	461	467	507
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	126	188	240	432	555
Axborot va aloqa	60	65	65	72	96
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25	24	33	49	80
Boshqa turlar	311	401	495	601	745

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil
Jami	62	85	148	304
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	10	8	18	57
Sanoat	28	38	70	134
Qurilish	-	-	-	1
Savdo	13	15	23	49
Tashish va saqlash	-	1	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	17	26	48
Axborot va aloqa	1	1	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
Boshqa turlar	5	5	8	12

**O'zbekiston Respublikasida MDH davlatlarining kapitali
ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	28	18	9
Qozog'iston Respublikasi	16	12	4
Ozarbayjon Respublikasi	3	2	1
Qirg'iz Respublikasi	2	1	1
Tojikiston Respublikasi	7	4	3
Ukraina Respublikasi	1	1	-
Belarus Respublikasi	2	2	-


Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Sirdaryo viloyati	182	122	60
Guliston sh.	42	28	14
Shirin sh.	6	6	-
Yangiyer sh.	21	9	12
Oqoltin	4	1	3
Boyovut	7	4	3
Sayxunobod	12	8	4
Guliston	5	4	1
Sardoba	8	5	3
Mirzaobod	12	7	5
Sirdaryo	56	46	10
Xovos	9	4	5

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 56 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 30,8 %), Guliston shahrida 42 ta (23,1 %), Yangiyer shahrida 21 ta (11,5%), Sayxunobod tumanida 12 ta (6,6 %) hamda Mirzaobod tumanida 12 tani (6,6 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,6 %), Sirdaryo (14,4 %), Sayxunobod (8,1 %), Boyovut (7,9 %), Guliston (7,5 %), Mirzaobod (8,1 %), Yangiyer shahri (7,0 %), Oqoltin (5,5 %), Xovos (5,4 %), Sardoba (4,8 %), Shirin shahri (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2020-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (21,1 %), Sirdaryo (11,6 %), Sayxunobod (8,6 %), Boyovut (9,4 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (10,1 %), Yangiyer shahri (5,7 %), Oqoltin (9,2 %), Xovos (6,5 %), Sardoba (7,8 %), Shirin shahri (3,3 %) hissalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,0 %), Sirdaryo tumani (16,9 %), Sayxunobod (8,5 %), Boyovut (7,1 %), Guliston (6,9 %), Mirzaobod (8,9 %), Yangiyer shahri (8,4 %), Oqoltin (5,2 %), Xovos tumani (5,7 %), Sardoba (5,1 %), Shirin shahri (2,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)




2020-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (9,7 %), Sirdaryo (12,9 %), Boyovut (5,2 %), Guliston (11,6 %), Mirzaobod (3,9 %), Yangiyer shahri (0,6 %), Oqoltin (47,7 %), Sardoba (0,6 %), Xovos (7,1 %), Shirin shahri (1,3 %) ulushga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020-yilning yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan, % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-sonli qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The main navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The central content area features a dropdown menu for 'Xizmatlar ro'yxati' with options: 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri'. The selected option leads to a form titled 'STIR kodini kiritib' (Enter STIR code) with a text input field and a 'Qidiruv' (Search) button. The form also includes a section for 'Rasmdagi kodni kiritib' (Enter code from image) with a placeholder for an image and a 'Qidiruv' button. The left sidebar lists 'RASMIY STATISTIKA' services such as 'E'lon qilish taqvimini', 'Metama'lumotlar', 'Makroko'rsatkichlar', 'Milliy hisoblar', 'Narx va indekslar', 'Investitsiyalar', 'Qurilish', and 'Tashqi iqtisodiy faoliyat'. The right sidebar lists 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information) including 'Aholini ro'yxatga olish-2022', 'Harakatlar strategiyasi', 'Press-revizlar', 'Choraklik natijalar', 'Nashrlar - statistika haqida', 'Uslubiy materiallar', and 'Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar'.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(67)236-86-37**